

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019. Fil.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**MUHAMMADIYEVA SHOHSANAM MANSUR QIZI**

**INGLIZ VA O‘ZBEK FLORA KOMPONENTLI IDIOMALARNING  
SEMANTIK VA PRAGMATIK XUSUSIYATLARI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik  
(filologiya fanlari)**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

UO‘K: 811.512.133’373.72:582+811.111’373.72:582

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD)  
on philological sciences**

**Muhammadiyeva Shohsnam Mansur qizi**

Ingliz va o‘zbek flora komponentli idiomalarning semantik va pragmatik  
xususiyatlari..... 3

**Муҳаммадиева Шохсанам Мансур қизи**

Семантические и прагматические особенности идиом, содержащих  
компоненты английской и узбекской флоры ..... 29

**Mukhammadiyeva Shohsnam Mansur qizi**

Semantic and pragmatic features of idioms containing components of  
English and Uzbek flora ..... 57

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 61

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019. Fil.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**MUHAMMADIYEVA SHOHSANAM MANSUR QIZI**

**INGLIZ VA O‘ZBEK FLORA KOMPONENTLI IDIOMALARNING  
SEMANTIK VA PRAGMATIK XUSUSIYATLARI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik  
(filologiya fanlari)**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №.B2023.4.PhD/Fil.4184 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.samdchi.uz](http://www.samdchi.uz)) hamda «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) manziliga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Xoliqov Bahodir Aliqulovich**

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Sulaymonova Nilufar Jabborovna**

filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Xolmuminov Ilxom Abdixalilovich**

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Qarshi Davlat Universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillari huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «21» oktyabr soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (+99866) 2433-78-43; faks (998966)210-00-18; e-mail: info@samdchi.uz.

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (6234 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand shahri, Gagarin ko'chasi, 43- uy. Tel.: (99866) 238-29-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «10» oktyabr da tarqatildi.  
2025-yil «10» oktyabr dagi 41 raqamli reyestr bayonnomasida.



**N.Z. Nasrullayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**O'.O'. Qo'ldoshov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**D.A. Kiselyov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida olamning kognitiv, milliy-madaniy va lisoniy manzarasini, turli tillardagi umuminsoniy qadriyatlarning lingvistik tarzda ifodalanilishini chuqur o'rganish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. XX asr oxiriga kelib tilni undan foydalanuvchi shaxs omili bilan bog'liq holda o'rganuvchi ilmiy paradigma – antropotsentrizmga e'tiborning kuchayishi natijasida tilshunoslikda hal qilinishi lozim bo'lgan qator muammolar yuzaga keldi. Jumladan, ingliz va o'zbek flora idiomalarining semantik va pragmatik xususiyatlarini o'rganish, jahon miqyosida madaniyatlararo aloqa jarayonlarini yaxshilash hamda lingvistik tafovutlarni aniqlash, ushbu mavzu orqali tillar va madaniyatlar o'rtasidagi semantik va pragmatik moslashuvchanliklarni chuqur tahlil qilish dolzab ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqot natijalari, nazariy tilshunoslik taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shish bilangina cheklanmay, madaniyatlararo muloqot samaradorligining oshishiga ham xizmat qiladi.

Dunyo lingvistikasida til semantikasiga oid bir qator tadqiqotlar o'tkazilgan bo'lsa-da, semantik ma'nolarni boshqa tillarda ifodalash va tarjimaning lingvistik xususiyatlari masalasi hozirgi kunga qadar yetarlicha o'rganilmagan. Dunyo ilmiy maktablarida ingliz va o'zbek flora idiomalarining semantik va pragmatik xususiyatlarini o'rganish, xalqaro tilshunoslik va frazeologiya sohalarida muhim ilmiy yo'nalishlardan biri bo'lib, uning o'rganilishi madaniyatlararo muloqot jarayonlarining murakkabligini tushunishga va tillararo tarjima texnologiyalarini takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Xususan, flora komponentli idiomalar ham dunyo miqyosidagi ilmiy tadqiqotlar ob'yektiga aylangan bo'lib, ularning ingliz va o'zbek tillaridagi lingvokognitiv, lingvomadaniy, semantik va pragmatik jihatlari hali to'liq chog'ishtirma aspektida o'rganilmagan. Ushbu bo'shliqni to'ldirish mazkur tadqiqotning ilmiy ahamiyatini yanada oshiradi.

O'zbek tilshunosligida yaratilgan bir qator tadqiqotlarda tilni kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq qilish haqidagi ilmiy qarashlar kontseptual tahlil orqali ko'rsatib berildi. Til birliklarini jumladan, idiomalarda kognitiv mexanizmlarning o'rni va ularning til birliklari orqali verballashuvi muammosini o'rganish ana shunday ilmiy qarashlarni yanada takomillashtirishdan iboratdir. Idiomalarning ingliz va o'zbek tillari misolida o'rganilishi mazkur muammoning chog'ishtirma aspektidagi kognitiv tilshunoslik uchun nihoyatda dolzarbligini ko'rsatadi. Mazkur dissertatsiyada zamonaviy kognitiv lingvistika, til, madaniyat, shuningdek, tafakkur bilan bog'liq bo'lgan etnolingvistika, antropolingvistika sohalaridagi ijobiy yo'nalishlarga ham e'tibor qaratilgan. Buning sababi, tildagi frazeologik birliklar har bir xalqning o'ziga xos an'analari, psixologik xususiyatlari, turmush tarzi va mentaliteti bilan bevosita bog'liqdir. Shu asnoda, ushbu tadqiqot ishi tilni faqat shaxsiy yoki struktural jihatdan emas, balki madaniy va tarixiy kontekstda ham o'rganishga qaratilgan. Jamiyatdagi munosabatlarni, hodisa, holatlarni sodda, ravshan, obrazli ifodalashda frazeologik birliklardan, jumladan, tabiatdagi o'z xususiyatlari bilan mos keluvchi o'simlik obrazlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Biz ularni "Flora komponentli idiomalar" deb

ataymiz. Tadqiqotda “flora komponentli frazeologik birlik”, “flora komponentli ibora”, “o‘simlik dunyosiga oid frazeologik birlik”, “frazeologik birlashma”, “frazeologizmlar” va “o‘simlik atamaları” kabi terminlarni ham qo‘lladik. Ular bir-birini to‘ldiruvchi ma‘nolarga ega bo‘lgan sinonimik so‘zlardir. Ingliz tilida flora idiomalarning tadqiqoti hali kuchli rivojlantirilmagan bo‘lib, ularning semantik va pragmatik jihatlari asarlardagi o‘simlik atamaları asosida deyarli o‘rganilmagan. Bu kabi frazeologik birliklarni o‘rganish, shuningdek, o‘simlik dunyosining inson hayotidagi rolini aniqlash imkonini beradi. Frazeologik birliklar milliy madaniyatning ajralmas bir qismi sanalib, ularni o‘zbek tiliga qardosh bo‘lmagan tillar bilan chog‘ishtirma tadqiqi o‘zbek frazeologiyasi asosida yotgan boy milliy madaniyatimiz durdonalarini, tilimizning nodir namunalarini jahon ahli e‘tiboriga taqdim etadi.

Mazkur dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 13-maydagi PF-4797-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va Adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2020-yil 12-oktabrdagi PF-5850-son “Xorijiy tillarni o‘qitish sifatini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2022-yil 18-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2022-yil 3-maydagi PF-72-son “Xorijiy tillarni o‘qitish tizimini yanada takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlari, 2023-yil 26-avgustdagi PQ-757-son “O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim tizimida xorijiy tillarni o‘qitish sifatini oshirish bo‘yicha qabul qilingan qaror” ilovasi hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Jahon tilshunosligida frazeologiya masalalari bo‘yicha bir qator fundamental tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lib, ushbu sohaga salmoqli hissa qo‘shgan olimlarning ishlari diqqatga sazovordir. Mazmunli va samarali izlanishlar dastavval quyidagi rus olimlarining ishlarida o‘z aksini topdi: V.V.Vinogradov, A.V.Kunin, N.N.Amosova, I.I. Chernisheva, A.M. Babkin, I.V.Arnold, V.L.Arhangelskiy, B.A. Larin, N.M.Shanskiy. Shu asnoda, O.V. Baturina rus tilidagi idiomatiklik hodisasini mikologik (zamburug‘lar haqidagi fan) leksika materialida tadqiq etgan.<sup>1</sup>

<sup>1</sup>Виноградов В.В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке//Избранные труды. Лексикология и лексикография. – М.:Наука,1977. – с. 140-161; Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – М.: Высшая школа, 1986. – с. 336; Амосова А.Н. Основы английской фразеологии. – Л.: Изд-во Ленинградского университета, 1963. – с. 208; Чернышева И.И. Фразеология современного немецкого языка. – М.: Высшая школа, 1970. – с. 199; Бабкин А.Н. Русская фразеология, ее развитие, источники и лексикографическая разработка. – Л.: Наука, Ленингр. отд-ние, 1970. – с. 263; Арнольд И.В.

O‘zbek tilshunosligida esa frazeologik birliklar dastlab M.E.Umarxo‘jayev, E.D.Polivanov, keyinchalik Sh.U.Rahmatullayev, A.E.Mamatov, B.Yo‘ldoshev, X.Berdiyev, G.I.Ergasheva, T.A.Bushuy, N.Z.Nasrullayeva, M.Sodiqova, D.U.Ashurova, M.R.Galiyeva tadqiqotlarida o‘rganilgan.<sup>2</sup> E’tirof etilgan tadqiqotlar juda katta nazariy-amaliy materialni o‘z ichiga olgan bo‘lsa-da, hanuzgacha frazemalarning bir qator masalalarini alohida o‘rganish talab etiladi. Shuningdek, aynan o‘zbek tilida fitonimik lug‘at ustida ishlash ham ko‘p yillar davomida dolzarb masala bo‘lib kelgan. Xususan, X.Jamolxonovning ishida o‘zbek tilidagi botanika terminologiyasining shakllanish tarixi ko‘rib chiqilgan.<sup>3</sup> Y.Eshonqulovning ishida esa ba‘zi o‘zbek tilida uchrovchi fitonimlarning tarixiy-etimologik tahliliga murojaat qilingan.<sup>4</sup> Shubhasiz, bu kabi tadqiqotlar katta hajmdagi nazariy va amaliy ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi, lekin ularning umumiy tahlili yetarli emasligi bilan bugungi kunda mavzuning dolzarbligini ko‘rsatadi.

G‘arb tilshunosligida esa yorqin asarlari bilan frazeologiya tahliliga katta hissa qo‘shgan olim sifatida Sh.Ballini tilga olmaslikning iloji yo‘q. Sh.Balli o‘z asarlarini yaratishda F.de Sossyur g‘oyalaridan ilhom olgan va hozirga qadar uning asarlari katta ahamiyat kasb etib kelmoqda. Keyinchalik A.Kouvi, J.Fyors, J.Sinkler kabi olimlarning frazeologik birliklarning semantikasiga bag‘ishlangan tadqiqotlarida bu fikrlar rivojlantirildi va asoslab berildi.<sup>5</sup> R.S.Gamanko ingliz tilidagi idiomatik belgisi so‘zlarning o‘ziga xos funksional xususiyatlarini noidiomatik so‘zlar bilan taqqoslash asosida ochib bergan. Olam lisoniy manzarasi tushunchasini yoritishga asos bo‘lgan dastlabki izlanishlar V.Fon Gumbold va L.Vaysgerberlarga tegishlidir. Keyinchalik bu yo‘nalish A.A.Potebnya, E.Sepir,

---

Лексикология современного английского языка. Учебник для ин-тов и фак. иностр. яз. - 3-е изд., перераб. и доп. – М.: Высшая школа, 1986. – с. 296; Архангельский В.Л. Основы теории устойчивых фраз и проблемы общей фразеологии. – Ростов: Изд-во РГУ, 1964. – с. 315; Ларин Б.А. Очерки по фразеологии. История русского языка и общее языкознание (избранные работы). – М., 1977. – с. 224; Шанский А.Н. Фразеология современного русского языка. Изд. 3-е, испр. и доп.. – М.: Высшая школа, 1985. – с. 160. Батурина О.В. Идиоматичность словообразовательной формы (на материале микологической лексики русского языка): Автореф. дисс. ... канд. фил. наук. – Кемерово: КГУ, 2004. – с. 23

<sup>2</sup>Рахматуллаев Ш. Некоторые вопросы узбекской фразеологии. – Ташкент: Фан, 1966. – с. 262; Умарходжаев М.И. Основы фразеологии – Ташкент: Фан, 1983. – с. 132; Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиш масалалари: филол. фан. док. ... дис. – Т., 1999. – б. 316; Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари: Филол. фан. д-ри. дис. ... автореф. – Тошкент, 1993. – б. 47; Бердиров Х., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиялогик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – б. 122; Эргашева Г.И. Инглиз ва ўзбек тиллари фразеологизм ва паремияларида гендер аспектининг қиёсий типологик тадқиқи. Филол. фан. номз. дисс. – Т., 2011. – б. 149. Bushuy T.A. O‘zbekiston frazeologiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 1995. – b. 270. Nasrullayeva N.Z., Sodiqova M. Ashurova D.U., Galiyeva M.R. Stylistics of literary text. – Toshkent: Turon iqbol, 2016. – p. 269. Ashurova D.U., Galiyeva M.R. Cultural linguistics. – Toshkent: O‘zkitobsavdonashriyot, 2019. – p. 127. Vaxronova D.K. Olam manzarasining milliy-madaniy va kognitiv kategoriyalanishi. – Toshkent: Turon iqbol, 2019. – b. 220.

<sup>2</sup> Жамолхонов Х. Ўзбек тилидаги ботаника терминологиясининг шаклланиш тарихи. – Тошкент: Фан, 2008. – б. 144.

<sup>3</sup>Эшонкулов Й. Фитонимларнинг тарихий-etimологик таҳлили. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2015. – б. 132.

<sup>4</sup>Балли.Ш Французская стилистика. – М.: Эдиториал УРСС, 2001. – с. 416; Cowie A. Phraseology. The Encyclopedia of Language and Linguistics. – Oxford: Oxford University Press, 1994. – p. 3171; Firth, J. Papers in Linguistics 1934-1951. – Oxford: Oxford University Press, 1957. – p. 233; Sinclair J. Beginning the study of lexis. In Bazell C., Catford J., Halliday M., Robins R., In Memory of J.R.Firth – London: Longman, 1966. – p. 410-430.

<sup>5</sup>Humbolt W. On Language: On the Diversity of Human Language Construction and its Influence on the Mental Development of the Human Species/ Losonsky M.Ed. – UK: Cambridge University Press, 1999. – p. 296;. Вайсгербер Й.Л. Родной язык и формирование духа / Пер. с нем., вступ. ст. и коммент. Радченко О.А. Изд. 2-е, испр. И доп. – М.: УРСС эдиториал, 2004. – с. 232.

B.Uorf, Yu.D.Apresyan, V.A.Maslova, V.N.Teliya kabi tilshunoslar ishlarida batafsil ochib berildi.<sup>6</sup> Shuningdek, L.X.Galimova tatar va ingliz tillaridagi idiomatik soʻzlarda aks etgan olamning lisoniy manzarasini tadqiq etish asosida bu soʻzlarning milliy-madaniy belgilarini chogʻishtirib oʻrgandi.<sup>7</sup>

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi.** Dissertatsiya mavzusi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat Oʻzbek tili va Adabiyoti universitetining “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” mavzusida olib borilayotgan istiqbolli ilmiy tadqiqot ishlari rejasining tarkibiy qismi hisoblanadi.

**Tadqiqotning maqsadi** oʻzbek va ingliz tillaridagi flora idiomalarining semantik, pragmatik xususiyatlari, ularning maʼno hamda madaniy kontekstdagi oʻxshash, farqli tomonlarini aniqlashdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

lisoniy frazeologik birliklarning etimologik, kognitiv va madaniy-tarixiy determinantlariga oid ilmiy-nazariy manbalarni tahlil qilish hamda mazkur tushunchaning nazariy asoslarini aniqlash;

ingliz va oʻzbek tillaridagi flora komponentli idiomalarning semantik xususiyatlarini, yaʼni, maʼno qatlamlari doirasida (metaforalar, sinonimlar va antonimlar) va ushbu konseptlarga tegishli frazeologik birliklarning etnolingvistik makonda milliy-madaniy kod sifatida qiyosiy-chogʻishtirma usulda tadqiq etish;

O.Uayldning “Dorian Greyning portreti” nomli romani asosida flora komponentli idiomalarni pragmatik xususiyatlarini oʻrganish hamda ularning pragmatik va lingvo-madaniy jihatlarini ochib berish;

ingliz va oʻzbek tillaridagi flora idiomalarining madaniyatlararo muloqotdagi funksional, semantik va pragmatik oʻrnini aniqlash.

**Tadqiqot obyekti** sifatida ingliz va oʻzbek tillaridagi semantik va pragmatik xususiyatlarga ega oʻsimlik dunyosiga oid idiomalar tanlandi.

**Tadqiqotning predmetini** ingliz va oʻzbek tillaridagi flora komponentli idiomalarning semantik va pragmatik xususiyatlari mazmuni tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari** sifatida deskriptiv, etimologik, madaniyatlararo qiyoslash (cross-cultural analyse), pragmatik modellashtirish, kontekstual assotsiativ tarjima, qiyosiy, chogʻishtirma va statistik usullarlar qoʻllanildi.

#### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

ingliz va oʻzbek tillaridagi flora komponentli idiomalarning milliy-madaniy, funksional, semantik va pragmatik xususiyatlarini qiyosiy tadqiq qilish natijasida ushbu til birliklari xalq tafakkuri, tarixiy-madaniy merosi, qadriyatlar tizimi va

---

<sup>6</sup> Потебня А. Мысль и язык. – Киев: СИНТО, 1993 – 192 с.; Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии – М.: Прогресс, 1993. – 656 с.; Whorf B.L. Language, thought and reality: Selected writings of Benjamin Lee Whorf / J.V.Carroll. Ed. – New York, 1956. – p. 246-270; Апресян Ю.Д. Интегральное описание языка и системная лексикография. Избранные труды. Т. II. – М.: Языки русской культуры, 1995. – с. 766; Маслова В.А. Введение в лингвокультурологию. Учебное пособие. – М.: Наследие, 1997. – 207 с.; В. Телия Н.. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингво-культурологический аспекты. – М.: Языки русской культуры, 1996. – 288 с.

<sup>7</sup> Галимова Л.Х.. Идиоматическое словообразование татарского и английского языков в свете языковой картины мира: Автореф. дисс. ... канд. фил. наук. – Казань: КГУ, 2007. – С. 18;

atrof-muhit haqidagi tasavvurlarni ifodalovchi muhim lingvokulturologik vosita ekanligi dalillangan;

flora komponentli idiomalar milliy stereotiplarga tayangan etnik-madaniy konnotatsiyalarga ega bo'lishi, muloqot jarayonida axborot uzatish bilan bir qatorda baholash, kinoya bildirish, istihola qilish, tanbeh berish, ogohlantirish, taklif berish kabi muayyan pragmatik vazifalarni bajarishi hamda madaniyatlararo muloqotda o'ziga xos semantik ma'noga ega milliy identifikator sifatida xizmat qilishi isbotlangan;

O.Uayldning "Dorian Greyning portreti" romanida atrofdagi olamni, personajlarning tashqi ko'rinishi va ichki dunyosini tasvirlashda flora komponentli idiomalarning ahamiyati, ularning asliyat va tarjimadagi muvofiqligi chuqur tahlil qilish natijasida ular kontekstda foydalanilish usullari, strukturaviy xususiyatlari, semantik chegarari va muallif tomonidan qanday maqsadda kiritilganligi aniqlangan;

ingliz va o'zbek tillarida o'simlik nomlaridan iborat idiomalarning qiyosiy tahlili asosida qardosh bo'lmagan xalqlarning madaniy tafakkuridagi o'xshashlik va farqlarli jihatlari yoritilgan, shuningdek, ularning milliy tafakkurida shakllangan ekologik, ijtimoiy va estetik qarashlari, jumladan, flora komponentli idiomalarda aks etgan ijobiy, salbiy va neytral baholar semantik-pragmatik aspektida asoslab berilgan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:**

flora komponentli idiomalar xalqning tarixiy-madaniy merosi, ekologik muhit haqidagi tasavvurlari hamda milliy tafakkurining ramziy ifodasi sifatida tilshunoslikda lingvokulturologik tahlil asosida tizimlashtirildi. Bu orqali ingliz va o'zbek tillaridagi o'simlikka oid idiomalarning xalq ongida tutgan konseptual o'rni va madaniy kodlarni uzatishdagi funksional yuklamasi amaliy jihatdan ochib berildi;

tadqiqot davomida flora komponentli idiomalarning nafaqat semantik, balki kommunikativ jarayonda bajaradigan pragmatik vazifalari (baholash, kinoya, istihola, munosabat bildirish) aniqlanib, ularning real muloqotdagi qo'llanilishi tahlil qilindi va ushbu idiomalardan milliy identifikator sifatida madaniyatlararo muloqotda foydalanish imkoniyatlari asoslab berildi;

O.Uayldning "Dorian Greyning portreti" romanida flora komponentli idiomalarning asl matn va tarjima variantlaridagi semantik, stilistik va pragmatik transformatsiyalari o'rganilib, ularning kontekstga bog'liq o'ziga xos vazifalari tahlil qilindi. Bu esa tarjimada milliy-madaniy konnotatsiyalarning adekvat aks ettirilishini ta'minlash zarurligini amaliy jihatdan namoyon etadi;

qiyosiy-tahliliy metod asosida ingliz va o'zbek tillaridagi flora komponentli idiomalarning semantik bazasi orqali ikki millatning ekologik, estetik va ijtimoiy qarashlari, shuningdek, xalqona dunyoqarashdagi umumiylik va o'ziga xosliklar tizimli ravishda ochib berildi. Ushbu tahlillar madaniy tafakkur va til orasidagi uzviy bog'liqlikni ko'rsatadigan amaliy manba sifatida xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot ishi ingliz va o'zbek tillaridagi flora idiomalariga oid ilmiy maqolalar, lug'atlar va badiiy asarlarga asoslangan. Asl (ingliz tilida) matnlardan dissertatsiyada foydalanilganligi va

asliyat manbaalarini izohlarda ko'rsatilganligi, nazariy ma'lumotlarning ilmiy manbaalarga asoslanganligi, tanlab olingan badiiy matnlarning tadqiqot predmetiga muvofiqligi, ilmiy xulosa va tavsiyalarning amalyotda joriy etilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot materiallaridan tarjimashunos, tilshunos, adabiyotshunoslar amaliy va ilmiy izlanishlarida manbaa sifatida foydalanishlari mumkin. Dissertatsiyada keltirilgan fikr-mulohaza va takliflar fitonim atamalariga oid tadqiqotlar uchun manba bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari ilmiy materiallarini mavzuga oid monografiya, darslik, o'quv qo'llanmalari yozish va lug'atlar tuzish, leksikologiya, frazeologiya, chog'ishtirma tilshunoslik, kognitiv tilshunoslik, pragmatika fanlari bo'yicha ma'ruza matnlarini tayyorlashda qo'llash mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O'zbek va ingliz flora idiomalarining semantik va pragmatik xususiyatlari va O.Uayld tomonidan yozilgan "Dorian greyning portreti" nomli romanning ikki tilda chog'ishtirma tahlilini o'rganish jarayonida olingan ilmiy natijalar asosida:

flora komponentli idiomalar xalqning tarixiy-madaniy merosi, ekologik muhit haqidagi tasavvurlari hamda milliy tafakkurining ramziy ifodasi sifatida tilshunoslikda lingvokulturologik tahlil asosida tizimlashtirilgan natijalaridan 2021-2023-yillarga mo'ljallangan F3-201912258 "O'zbek adabiyotining ko'p tilli (o'zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish" amaliy loyihasida foydalanilgan(Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil, 11-dekabrda 04/1-4090-son ma'lumotnomasi); Natijalarda, ushbu til birliklarining semantik-konnotativ xususiyatlari va tarjimada madaniy ekvivalentlikni ta'minlashga doir yondashuvlar elektron platformada o'zbek, rus va ingliz tillarida adabiy matnlarni lingvokulturologik izohlash, hamda ular asosida ko'p tilli o'quv resurslarini yaratish jarayonida metodik asos sifatida qo'llanildi.

ilmiy tadqiqot natijasida dissertatsiyaning tilshunoslik, pragmatik xususiyatlari, flora idiomalarining terminlarining funksional-uslubiy va semantik xususiyatlari birlashtirgan holda sohamizda qo'llanilishi, o'zbek tilida qo'llanayotgan flora komponentiga oid iboralarni aniqlash hamda amalda qo'llash muammolari va yechimlarini o'rganishning yangi metodologiyasiga doir ilmiy qarashlar tahliliga ham murojaat qilingan va dissertatsiyasi natijalaridan Davlat grantlari asosidagi 2019-2022-yillarda amalga oshirilgan AM-F3-201908172 – "O'zbek tilining ta'limiy korpusini yaratish mavzusi" nomli grant loyihasida foydalanilgan(Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil, 11-dekabrda 04/1-4091-son ma'lumotnomasi); Natijada, dissertatsiyaning tilshunoslik, pragmatik xususiyatlari, flora idiomalariga oid terminlarining funksional-uslubiy va semantik xususiyatlari birlashtirgan holda sohamizda qo'llanilishi, o'zbek tilida qo'llanayotgan flora komponentiga oid iboralarni aniqlash hamda amalda qo'llash muammolari va yechimlarini o'rganishning yangi metodologiyasiga doir ilmiy qarashlar tahliliga ham murojaat qilindi.

idiomalar yordamida olamning lisoniy manzasiga xos milliy-axloqiy me'yorlarini namoyon qilish, shu bilan birga xalqning o'ziga xos xususiyatlarini yoritish, maxsus tagtizm sifatida o'rganilayotgan o'zbek va ingliz tillaridagi flora komponentlarining o'xshashliklari va asosan milliy-madaniy xususiyatlaridan mazkur jarayonlar keng tarzda Samarqand davlat chet tillar institutida Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 12-dekabrda 2/24-4/7-690-sonli xatiga asosan 2022-2024-yillarda amalga oshirilgan va Toshkent shahridagi AQSh elchixonasi hamda Xalqaro ta'lim bo'yicha Amerika Kengashi bilan hamkorlikda AQSh davlat departamenti tomonidan moliyalashtiriladigan "English Access Microscholarship Program" loyihasida foydalanildi (Samarqand davlat chet tillar institutining 2025-yil 5-apreldagi, 335//30.02.01-son ma'lumotnomasi). Natijada, pragmatik jihatdan farqli xususiyatlarini ochib bergan holda madaniyatlararo muloqotni yanada jivojlantirish, qiyoslanayotgan tillarda flora komponentli idiomalarning madaniyatlararo muloqotdagi funksional, semantik va pragmatik mazmunini yoritgan holda ikki xalq o'rtasida tilning aniqligini oshirishga erishildi.

lisoniy sistema zanjiridagi bir bo'g'in sifatida idiomalarni boshqa sohalar terminologiyasi bilan parallel ravishda taraqqiy etishi va boyitilishida sezilarli darajada yaxshilash imkoniyatlaridan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston-24" ijodiy birlashmasi "O'zbekiston" teleradiokanali tomonidan tayyorlangan "Jahon adabiyoti", "Ta'lim va taraqqiyot" dasturlarining senariysida foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston-24" ijodiy birlashmasi "O'zbekiston" teleradiokanali 2025-yil fevral va mart oylaridagi, 05-09-614-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, lingvokulturologik savodxonlik va madaniyatlararo kompetensiyani oshirishda flora komponentli idiomalarni ikki tilda qiyoslash orqali tinglovchilar yoki tomoshabinlar turli xalqlarning tabiat haqidagi tasavvurlari, ekologik va estetik qadriyatlari, milliy tafakkuri va tarixiy-madaniy merosidagi umumiylik va farqlarni angelaydi. Bu esa madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantiradi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 4 ta ilmiy ish; shulardan, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosida o'tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, jumladan, 4 ta respublika va 5 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, uning umumiy hajmi 150 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati bayon etilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi asoslangan, muammoning o'rganilish darajasi,

tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob'yekti va predmeti aniqlangan, tadqiqotda foydalanilgan metodlar ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangligi va amaliy ahamiyati bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchligi asoslangan, natijalarning amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertasiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Ingliz va o'zbek tillarida frazeologik birliklarni o'rganishga doir nazariy yondashuvlar”** deb nomlangan bo'lib, 3 paragrafdan iborat. Unda tilshunoslik rivojining bugungi bosqichlari frazeologik nuqtayi nazaridan ko'rib chiqilgan, o'zbek va ingliz tillarida uchraydigan idiomalarning nazariy asoslariga alohida e'tibor berilgan, shuningdek, frazeologik tizimdagi idioma tushunchasi rivojlanishining istiqbolli tendensiyalari tahlil qilingan.


Bobning 1.1-paragrafi *“Lisoniy ongida frazeologik birliklarning etimologik, kognitiv va madaniy-tarixiy determinantlari”* deb nomlangan bo'lib, unda hozirgi tilshunoslikda frazeologik birliklarning shakllanishi, ushbu jarayon natijasida yuzaga kelgan tilshunoslikning yangi yo'nalishlari xususida to'xtalib o'tilgan. Frazeologik birliklar har doim davr bilan hamnafas, ixcham, ma'no jihatidan salmoqdor bo'lib, ta'sirchan nutqni yuzaga keltiruvchi muhim vositalardir. Shuning sababli bugungi kunda rivojlanib kelayotgan sistem tilshunoslikda turli tipdagi so'z yasash qoliplari, semantik-funksional planda olingan frazeologizmlar orasidagi sistem aloqalarni o'rganilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa, o'z navbatida, frazeologiyaga doir tadqiqotlarning qanchalik dolzarb ekanligini yaqqol ko'rsatib beradi. Tuzilishi jihatdan frazeologizm tashkil etuvchisiga ko'ra qo'shma leksema, so'z birikmasi va gapga o'xshaydi va nutqda xususiylik sifatida namoyon bo'ladi.

Xalqning tarixini, madaniyati va o'ziga xosligini tasvirlashi orqali frazeologiyani tilning xazinasiga qiyoslash mumkin. Frazeologizmlar asosan millat an'analari-yu, urf-odatlarini, o'zida mujassamlashtiradi. Lekin ingliz tili frazeologiyasida milliy an'analarni ifodalab keluvchi frazeologik birliklar bilan bir qatorda internatsional va arxaik elementlar bilan o'zaro chambarchas frazeologizmlarni ham uchratishimiz mumkin. Frazeologizmlar boshqa til birliklari kabi yuqori informativ xususiyatga ega, hamda, tilda nominativ va kommunikativ vazifa bajaruvchi birliklar sanalib, ularga faqatgina nutqni bezovchi vosita sifatida qarash mutloq noto'g'ri deb hisoblaymiz. Binobarin, frazeologik birliklar ham umumiy til vositalari bo'lib, ularsiz tilni tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu asnoda, V.A.Maslova, N.N.Boldirev, A.Vejbiskaya, Ye.M. Vereshagin, I.G. Kostomarov, V.V.Vorobyov, A.Ya.Gurevich, V.N.Teliya<sup>8</sup> kabi olimlar frazeologiya sohasini lingvokulturologiya sohasi bilan bog'lab o'rgangan vaqtda, G.Bakiyeva,

---

<sup>8</sup>Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001. – 208 с. Болдырев Н. Н. Когнитивная семантика. – Тамбов: Изд-во ТГУ, 2001. – 180 с. Вежицкая А. Язык. Культура. Познание. – М.: Русские словари, 1996. – 256 с. Верещагин Е. М., Костомаров И. Г. Язык и культура. – М.: Русский язык, 1990. – 248 с. Воробьев В. В. Лингвокультурология: теория и методы. – М.: РУДН, 1997. – 192 с. Гуревич А. Я. Категории средневековой культуры. – М.: Искусство, 1984. – 288 с. Телия В. Н. Русская фразеология: семантико-когнитивный и лингвокультурологический аспекты. – М.: Языки русской культуры, 1996. – 327 с.

A.M.Bushuy, Sh.Safarov, D.Ashurova va A.E.Mamatov<sup>9</sup> kabi tilshunoslar esa frazeologizmlarning lingvopragmatik xossalarini ochib berishga harakat qildilar. Tadqiqot doirasida o‘rganilayotgan atamalar tarixi va ular o‘rtasidagi tafovutlarni aniqlashda tilshunos olimlar tomonidan dalillangan tahlillarga murojaat qilamiz. Quyida biz frazeologiyani sinflanishini diagramma orqali ko‘rsatib, har bir tayanch so‘zni tahlil qilamiz:



### 1.1-rasm. Frazeologiyani sinflanishi.

Ma'lumotlarni umumlashtirgan holda shu aytish mumkinki, rus tilshunosligida frazeologik birliklar tizimli yondashuv asosida o‘rganilgan bo‘lsa, yevropa tilshunosligida ularning semantik va funksional jihatlari keng tadqiq qilindi. O‘zbek tilshunosligida esa frazeologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlariga alohida e’tibor qaratildi.

Bobning 1.2.-paragrafi *“Idiomalar o‘zbek va ingliz til tizimlarida kognitiv va diskursiv ifodalanish hodisasi sifatida”* deb nomlanib, muayyan axborotni aks ettirishda muhim sanaluvchi tamoyillarning tasnifi va izohi, ushbu masala yuzasidan o‘zbek va g‘arb tilshunoslarining tadqiqotlari tahlil etildi.


Xususan, bugungi tadqiqotlar doirasida eng dolzarb muammolardan biri sanalmish frazeologik birliklar masalasi bilan shug‘ullanayotgan mutaxassislar tilshunoslik rivojida idiomalarni o‘rganishga oid yangiliklar qilishga asosiy diqqatni qaratmoqdalar. Shuningdek, turli mutaxassislar tomonidan terminologik o‘zgarishlar taklif qilinib, hozirgi tilshunoslik doirasida frazeologik birliklar muammosi keng muhokama qilinadi.

Idiomalarning tilda tutgan o‘rni nafaqat stilistik, balki kognitiv va diskursiv funksiyalarda ham muhim. Har bir til o‘zining milliy-madaniy paradigmasi asosida idiomalarni shakllantiradi. Shu nuqtayi nazardan, o‘zbek va ingliz tillaridagi idiomalar inson tafakkuri va muloqot jarayonida qanday shakllanadi, qanday ishlatiladi, degan savollar muhim bo‘ladi. Idioma atamasining ildizi yunoncha

<sup>9</sup> Бакиева Г. Фразеология соҳасидаги тадқиқотлар. – Тошкент: Фан, 2003. – 215 б. Бушуи А. М. О важности фразеологических единиц в современном языке. – Ташкент: УзГУ, 1998. – 176 с. Сафаров Ш. Ўзбек тилининг замонавий фразеологияси. – Тошкент: Наука, 2002. – 205 б. Ашурова Д. Ўзбек тилида фразеология муаммолари. – Тошкент: Академия, 2005. – 199 б. Маматов А. Э. Ўзбек тилининг лексика ва фразеологияси. – Тошкент: Шарк, 2001. – 220 б.

leksema idiomalarga borib taqalgan bo‘lib, “o‘ziga xos, xususiy” degan ma‘noni anglatadi.<sup>10</sup>

Shuningdek, lingvistik jihatdan idioma – til birligiga teng bo‘lgan turg‘un so‘zlar majmuasidir. Idiomada mazkur majmua tarkibidagi so‘zlar o‘z asl ma‘nosini yo‘qotib, yangi, umumiy, yaxlit ma‘no kashf etadi. Tilshunoslik nazariyasida idioma eng oddiy til birligiga teng. So‘zlar idioma tarkibida birlashganda, o‘zining avvalgi funksional erkinligini yo‘qotadi, ya‘ni aynan so‘z mavqeida erkin lingvistik munosabatlarga kirisha olmaydi, ular faqat idioma sifatida lingvistik birlikni tashkil kiladi. Demak, idioma, frazeologik birlik sifatida turg‘un strukturaga ega, uning semantik mazmuni ham yagona, turg‘un va qat‘iydir. *Kognitiv nuqtai nazardan*, idiomalar inson tafakkurining natijasi bo‘lib, ular metafora, metonimiya, kontseptlar asosida paydo bo‘ladi. Masalan, ingliz tilidagi “*kick the bucket*” (o‘lish) idiomasi tildagi metaforik tafakkurning ifodasi. O‘zbek tilidagi “*ketmonni osmoq*” ham xuddi shunday metaforik asosga ega. *Diskursiv yondashuvda esa* idiomalar nutqning pragmatik elementlari sifatida xizmat qiladi. Ular matn yoki muloqotda ishtirokchilarning maqsadi, hissiyoti, yoki ijtimoiy maqomini bildirishi mumkin. Masalan, “*pull your leg*” (hazillashmoq) idiomasi do‘stona muloqot kontekstida ishlatiladi. O‘zbekchada “*bo‘riga go‘sh t topshirish*” – noto‘g‘ri odamga ishonch bildirish holatini anglatadi, va bu holat diskursda ogohlantirish yoki kinoya sifatida chiqadi. Idiomalar tarixiy hodisa bo‘lishi bilan birga, ularning shakllanishi til voqeligi taraqqiyoti qonuniyatlariga bo‘ysunadi, shu bois ular hanuz shakllanish jarayonidadir. Masalan, “*apple*” – olma so‘zi bilan turli qat‘iy so‘z birliklari yasalganini quyidagi chizmada ko‘rishingiz mumkin:



**1.2-rasm. “Apple”, ya‘ni olma so‘zi bilan keluvchi idiomalar.**

Ingliz tilida uchrovchi frazeologik qo‘shimchalar bir qator xarakterli xususiyatlarga ega. Buni esa aniqroq holatda quyidagi jadvalda ko‘rishingiz mumkin:

<sup>10</sup>Strassler J. Idioms in English – a pragmatic analysis. – 1982 – p 13.

<http://www.dictionary.com> (Based on the Random House Dictionary, © Random House, Inc. 2009.)

Ikki qardosh bo‘lmagan tillarda uchrovchi idiomalar o‘rtasidagi paradigmatic tavsifni quyidagi jadvalda ko‘rishingiz mumkin:

<i>Tavsif</i>	<i>Ingliz tili</i>	<i>O‘zbek tili</i>
<i>Dominant kontsept</i>	Individualizm, iroda, pragmatizm	Jamoatchilik, hurmat, qadriyatlar
<i>Emotsional ifoda</i>	Yumor, ironiyaga moyil	Kinoya, odob doirasida tanqid
<i>Metaforik asos</i>	Harakat (motion-based metaphors)	Uy, yer, tabiat obrazlari
<i>Strukturaviy xususiyat</i>	Ko‘p hollarda qisqa va zamonaviy	Ko‘proq tarixiy va nasriy shaklda

Bayon etilgan ma’lumotlar shuni anglatadiki, har ikkala tilda ham o‘ziga xos idiomalar mavjud bo‘lib, ular barqarorlik mezoni asosida turli voqelikni kashf etadi. Idiomalar milliy tafakkur mahsuli bo‘lib, ular kognitiv asosda shakllanadi va diskursda faol ishlatiladi. Har bir tilda o‘z madaniyati va dunyoqarashiga ko‘ra idiomalar yaraladi. Anglanadiki, yuqoridagi ma’lumotlar asosida o‘zbek va ingliz tillaridagi idiomatik tizimni solishtirish orqali, turli madaniyatlar tafakkuri va aloqa uslublari o‘rtasidagi farqlar ochib berildi. Keyingi paragraflarda esa, aynan shu mavzuga doir idiomalarning semantik va grammatik jihatlarini batafsil yoritib berishga katta e’tibor qaratdik.

Bobning “*Funksional-kognitiv tahlil doirasida idiomalarning struktur-semantik va sintaktik mohiyati*” deb nomlangan 1.3.-paragrafida idioma tushunchasining vujudga kelishi, uning semantik ma’nosi va grammatik tuzilishi, o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida fikr-mulohazalar tahlil qilingan. Idiomalar tilda o‘zgaras, ko‘pincha yaxlit ma’no beruvchi birliklar sifatida mavjud bo‘lsa-da, ular grammatik jihatdan turli kontekstlarda faol ishtirok etadi. Funksional-kognitiv yondashuv ularning shakli, ma’nosi va kognitiv asoslarini bir butun holatda tahlil qilishga imkon beradi. Idiomalarning semantik va grammatik tuzilish tartibiga bog‘liq ravishda, ularning leksik va frazeologik ma’no jihatlari ham o‘ziga xosdir. Bu ikki jihat tilning ifodalanish usullarini ham tasvirlaydi. *Funksional nuqtai nazardan* til birliklari nutqdagi kommunikativ ehtiyoj asosida tanlanadi. Idiomalar kontekstga qarab nutqning *emotsional, ironik, evaluativ (baholovchi)* funksiyalarini bajaradi. *Kognitiv nuqtai nazardan* esa, idiomalar metaforik va kontseptual asosda shakllanadi. Masalan: *Inglizcha*: “spill the beans” – yashirin narsani oshkor qilish. *O‘zbekcha*: “og‘zidan uchib ketdi” – aytmasligi kerak bo‘lgan so‘zni aytib yubordi.

Bir so‘zning to‘g‘ri ma’nosi bilan iboradagi bog‘li ma’nosi quyidagi matnda yanada yaqqolroq ko‘rinadi: *Bog‘ning guli shu kunlarda haqiqatan ham bog‘ning guli bo‘lib turiptida!*<sup>11</sup> Aniqki, “gul” so‘zi birinchisida o‘z, ikkinchisida ko‘chma ma’noda, shuning uchun ikkinchi ibora frazeologik qo‘shilmaga aylangan “*bog‘ning guli*”.

Umumiy xulosa shundan iboratki, idiomalar grammatik va semantik jihatdan murakkab bo‘lib, ular kognitiv asoslar orqali ma’no anglatadi. Ular sintaktik jihatdan turlicha rolda qatnashsa-da, doimo ko‘chma ma’noli, umumlashgan

<sup>11</sup>Yo‘ldoshev B. “Frazeologik uslubiyat asoslari”. SamarqandDU., 1999. – 86 b.

kontseptni ifodalaydi. Funktsional-kognitiv yondashuv idiomalarning shakli, ma'nosi va nutqdagi real ishlatilishini uyg'un holda ochib beradi. Keyingi boblarda esa asosiy urg'u flora komponentiga oid idiomalar tasnifiga berilgan.

**“Ingliz va o‘zbek tillarida o‘simlik dunyosiga oid frazeologik birliklarning xususiyatlari”** deb nomlangan ikkinchi bob 2 paragrafdan tashkil topgan. Har bir xalq tili uning dunyoqarashi, qadriyatlari va madaniyatini aks ettiradi. Frazeologik birliklar, ayniqsa, o‘simlik (flora) komponentli iboralar milliy tafakkur va turmush tarzining til ifodasidir. O‘zbek va ingliz tillaridagi bunday birliklarni solishtirish orqali ikki madaniyat orasidagi umumiylik va farqlar ochib beriladi.

Bobning *“O‘simlik tushunchasi etnolingvistik makonda milliy-madaniy kod va ramziy tafakkur elementi sifatida”* deb nomlanuvchi 2.1.-paragrafida o‘zbek va ingliz tillarida o‘simliklarga oid idiomalar va ularning ijtimoiy hayotda tutgan o‘tini lingvistik jihatdan tahlil qilindi.

Ma'lumki, qadim zamonlardan beri flora dunyosi va inson bir-biri bilan chambarchas bog'liq. O‘simliklar har doim insoniyat tarixida juda muhim rol o‘ynaydi. O‘simliklar odamlarni hayotiy kislorod bilan ta'minlab, kundalik oziq ovqatning muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. Shu o‘rinda til haqida fikr yuritish ham joiz. U nafaqat aloqa vositasi, balki xalqning tafakkuri, mentaliteti va qadriyatlar tizimini ifoda etuvchi muhim etnolingvistik hodisa hisoblanadi. Har bir tilda o‘simliklarga oid tushunchalar nafaqat atrof-muhitdagi tabiiy obyektlar sifatida, balki chuqur madaniy, ramziy, kognitiv ma'nolarni o‘z ichiga oladi. O‘simlik obrazlari inson ongida, nutqida va madaniy xotirasida milliy-madaniy kod sifatida faol ishtirok etadi va ramziy tafakkur asosida ishlaydi. Har bir xalq tarix davomida tabiat bilan chambarchas bog'liq holda yashagan. Shu bois, o‘simliklar ularning hayoti, dunyoqarashi va madaniyatida muhim o‘rin egallagan. O‘simliklar inson hayotining har bir bosqichi *tug‘ilish, ulg‘ayish, gullash, so‘lish* bilan qiyoslanadi va ramziy ma'nolar hosil qiladi. Masalan, o‘zbek tilidagi *“gullamoq”, “yaproqdek titramoq”, “ildiz otmoq”* kabi iboralar o‘simlik obrazlari orqali inson holatlari, his-tuyg‘ulari yoki hayotiy bosqichlarini ifodalaydi. Bu iboralar tilga madaniy va ramziy yuklama beradi, ya'ni tildagi har bir o‘simlik nomi semantik metafora sifatida keladi.

Flora dunyosining rivojlanish tarixiga nazar solsak, har qanday til fitonimlarining o‘rganish tarixi, ya'ni ularning genetikasi, albatta hisobga olinishi kerak. R.Ch.A.Prior Britaniyaning keng tarqalgan o‘simlik nomlariga bag‘ishlangan kitobida yozishicha,<sup>12</sup> inglizcha *“mevalar, o‘rmon daraxtlari, don ekinlari, ko‘plab o‘t-o‘lanlar va shifobaxsh o‘simliklar”* bugungi kunda ming yillar davomida o‘zgarmay qolgan nomlarga ega. Biroq, boshqa turdagi o‘simliklarning ancha katta guruhi so‘nggi 300 yil ichida berilgan nomlarga ega. O‘simlik nomlarining ko‘pchiligi ingliz tiliga boshqa xalqlar – rimliklar, anglosakson qabilalari va o‘z vaqtida Angliyani zabt etgan normanlar tillaridan o‘zlashtirilgan.

Shuningdek, ingliz tilining lug‘ati lotin, yunon, anglo-sakson, norman, nemis, shved, daniya, arab va fors tillaridan kirib kelgan ko‘plab o‘simlik nomlarini o‘z

---

<sup>12</sup>Prior R.C.A.(Приор Р.Ч.А.) On the Popular Names of British Plants. – London, 1879. – 294 p.

ichiga qamrab olgan. Biroq, albatta, lug‘atning ko‘p qismini lotin va yunon tillaridan kirib kelgan so‘zlari tashkil etadi, ularning aksariyati asosan ruhoniylar tomonidan ingliz tiliga kiritilgan. Ular diniy yoki tibbiy matnlarda uchrovchi o‘simliklarning lotin va yunon kelib chiqishiga ega nomlarini ma‘no o‘zgartirgan holda yoki kalkalash usuli orqali tarjima qilishga erishdi.

Etnolingvistik nuqtayi nazardan qaralganda, o‘simliklar milliy madaniyatda muayyan qadriyat, timsol va mental belgilarni bildiradi:

<i>O‘simlik</i>	<i>Ma‘nosi (O‘zbek kontekstida)</i>
<i>Gul</i>	Go‘zallik, poklik, qisqa umr
<i>Qarag‘ay</i>	Kuch, chidamlilik
<i>Ildiz</i>	Asl, nasl, kelib chiqish
<i>Yaproq</i>	Noziklik, zaiflik, hayotiy kuch
<i>G‘o‘za / bug‘doy</i>	Baraka, mehnat, farovonlik

O‘simliklarga asoslangan ramzlar xalq tafakkurining konseptual xaritasida alohida o‘rin tutadi. Inson hayoti ko‘pincha o‘simlik o‘sishi bilan qiyoslanadi: *urug‘ sepiladi (tug‘ilish)*, *ildiz otadi (asos solish)*, *gullaydi (rivojlanish)*, *so‘nadi (o‘lim)*. Bu *kognitiv metaforalar* til orqali berilib, madaniyatda chuqur ildiz otgan.

Ingliz tilida ham “*to put down roots*” (*ildiz otmoq*), “*to blossom*” (*gullamoq*), “*turn over a new leaf*” (yangi bosqich boshlamoq) kabi iboralar mavjud. Demak, o‘simlik tushunchasi xalq tafakkurida universal asosga ega bo‘lsa-da, har bir madaniyatda u o‘ziga xos talqinda namoyon bo‘ladi.

O‘simlik – milliy madaniyat ko‘zgusi sanaladi. Til vositasida o‘simlik tushunchasi *milliy-madaniy kod* sifatida namoyon bo‘ladi. Har bir o‘simlik nomi bilan bog‘langan semantik maydon, ramzlar tizimi va madaniy qadriyatlar mavjud. Masalan: “*Gulgun kunlar*” – *baxtli, yorqin kunlar (optimistik kod)*, “*Guldan to‘kilmoq*” – *kamolotdan pasayish (hayotiy sinovlar)*, “*Ildizi bor*” / “*ildizi yo‘q*” – *asl zoti bor / yo‘q (naslga munosabat)*. Bu iboralar xalq madaniy xotirasida avloddan-avlodga o‘tib, barqaror ramzlar tizimini hosil qiladi. Shu bois, o‘simlik tushunchasini o‘rganish til va madaniyat uyg‘unligini o‘rganishdir. O‘simliklar, gullar va boshqa tabiiy elementlar inson ruhining holatini ifodalash uchun kuchli ramzlar sifatida qo‘llaniladi. Rumi shunday g‘oyalarni o‘z asarlarida namoyish etadi. Misol sifatida, Rumiyning “*Masnaviyi manavi*” asaridan foydalanishingiz mumkin. Bu asarda u gullarni va o‘simliklarni o‘z holati va aloqa o‘rnatishi uchun foydalanadi: “*Gulning qattiq boshi, Ikkita shoxli, xushbo‘y osmon.*”<sup>13</sup> Bu misrda Rumi gullarning go‘zalligi va tabiat kuchi orqali inson ruhiyatidagi noziklik va ifodani tasvirlaydi. Uilyam Shekspirning eng mashhur pyesalaridan biri “*Romeo va Juliyetta*” ingliz madaniyatida aks etuvchi flora idiomalari ochib berishda eng durdona asar hisoblanadi. Ushbu pyesada sevgi, nafrat va tragedik taqdir hikoyasini ifodalangan. Asarda Verona shahrida yashovchi ikki yosh Romeo va Juliyettaning oilalari o‘rtasidagi doimiy nizo tufayli tug‘ilgan sevgisi va uning oqibatlari haqida so‘z boradi. Flora, ya‘ni, tabiiy go‘zallik bilan bog‘liq idiomlar

<sup>13</sup>Hoshimov B., Umurov, Q.K. “O‘zbek she‘riyatida o‘simliklar,” O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi, 2019.

“Romeo va Juliyetta” pyesasida bir necha joyda qo‘llanadi. Masalan, “*Gullar*” va “*mushk*” kabi flora elementlari odatda sevgi va go‘zallik ramzi sifatida ko‘rsatiladi. Ular sevgi va go‘zallikni tasvirlovchi metaforalarda ishlatiladi. Misol uchun, Juliyettaning go‘zalligi, shuningdek, Romeo uchun jilolangan sevgi sifatida tasvirlanadi. 4-bo‘lim, 5-sahnada, Juliyetta jonsiz deb hisoblanganda, gullar tasvirlari yana paydo bo‘ladi:

*“O, bid me leave thee, again, And I will tear my hair and send it back to you And make your tomb a day of flowers, And there I shall flower, there I shall die.”*<sup>14</sup>

Muallif tarjimasi: “*Meni ketgil degan ey gulim, Sochlarim tolasi senga baxshida, Qabringni gullarga ko‘marman, Men guldek ochilib, jonsiz qolaman.*”

Bu parchalar “Romeo va Juliyetta” asarida tabiat tasvirlari va gulga oid iboralarning qanday ishlatilishini aks ettiradi, sevgi, go‘zallik va tragediya kabi muhim mavzularni yoritadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, tabiat va inson azaldan bir-biriga uzviy bog‘langan. Shekspir bu flora elementi va tasvirlarini ishlatib, sevgi va go‘zallikni kuchli va hissiy bir ko‘rinishda ifoda etadi. Bu usul asar qahramonlari o‘rtasidagi aloqada bevosita ta‘sir o‘tkazadi. Asliytdagi she‘riy misra va muallif tarjimasi orasidagi munosabatni tahlil qilganda, tarjimada *poetik adaptatsiya tarjima* usulidan foydalanilganligini ko‘rish mumkin. Tarjimon asliytdagi mazmuni saqlagan holda, shakl, tuzilish va ba‘zan metaforalarning ifodasini erkin o‘zgartirgan. Bu usul, she‘riy asarlarni boshqa tilda estetik ta‘sirini saqlab qolish maqsadida qo‘llanadi.

Asliytda: “*I will tear my hair and send it back to you*”

Muallif tarjimasi: “*Sochlarim tolasi senga baxshida*”

“*Tear my hair*” dramatik harakat o‘zbekchada lirik obrazga aylantirilgan “*sochlarim tolasi*”. Shuningdek, tarjimada muallif *madaniy moslashtirish (cultural substitution)* orqali o‘zbek tilining milliy poetik kodlari va obrazlarini tanlagan. Masalan: “*Make your tomb a day of flowers*” – “*Qabringni gullarga ko‘marman*” Bu yerda “*a day of flowers*” degan ibora madaniyatlararo tafovutga moslashtirilib, o‘zbekona poetik ifoda “*gullarga ko‘marman*” tarzida berilgan.

Ushbu bobning 2.2. – paragrafi “*Morfosintaktik modellar va fitonim komponentli frazeologik konstruksiyalarning pragmatik-stilistik tasnifi*” tarzida nomlangan. Ushbu paragrafda til birliklari qatorida frazeologizmlar millat madaniyati, turmush tarzi, hamda uzoq yillik kuzatuvlarning jamlanma ifodasi sifatida talqin qilingan, shuningdek, frazeologik birliklarning namoyon bo‘lishiga oid qarashlar ingliz va o‘zbek badiiy matnlaridan olingan misollar tahlili yordamida ochib berilgan.

O‘simliklarga oid frazeologik izohlar va idiomalar, aksariyat hollarda, ma‘lum bir madaniyat va tarixiy kontekstga bog‘liq bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan rivojlanishi mumkin. Shuning uchun, ularni ochib berishda har doim tarixiy va madaniy nuqtai nazar bilan yondashish zarur. O‘zbek tilida uchraydigan o‘simlik dunyosiga oid ba‘zi iboralar: *Qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan, sirkasi suv ko‘tarmaydi, anqoning urug‘i, qo‘ynini puch yong‘oqqa to‘ldirmoq, tarvuzi qo‘ltig‘idan tushdi* va boshqalar.

---

<sup>14</sup>William Sh. Romeo and Juliet. Cambridge University Press, 2005. ISBN: 978-0521620378

Atirgul Angliyadagi eng tarovatli gul bo‘lib, adabiyotda ham, rasmda ham o‘z aksini topdi. Deyarli hamma joyda u go‘zallik, yoshlik va sevgi bilan bog‘liq. Bu gul yozuvchilar va shoirlar bajonidil foydalanadigan yorqin tasvir hisoblanadi. Masalan, *“Arose by any other name would smell as sweet”*<sup>15</sup> (“atirgul qanday nom bilan atalmasin, o‘z iforini taratmay qolmaydi”) Uilyam Shekspir tomonidan taqdim etilgan ushbu misra atirgul bilan bog‘liq. Iboraning manbai Shekspirning *“Romeo va Juletta”* asarida joylashgan. Iborada *“rose”* (atirgul) va *“name”* (nom) o‘rtasidagi bog‘lanish aytiladi. Atirgulning qaysi nom bilan atalishi uning mohiyatiga yoki go‘zalligiga ta’sir qilmaydi. Shuningdek, atirgul va uning go‘zalligi asosida yaratilgan iboralar, she‘rlar ko‘plab adabiyot namunasida tahlil qilinadi. Quyida ayrim mashhur mualliflardan atirgulga oid she‘rlar, misollar va maqollar keltirildi: *“...Naim bir nazar qil, atirgulga, / Ko‘zlarimda, unga ko‘rgach, eng aziz.”* (Abdurauf Fitrat. “Atirgul” she‘ridan parcha). Bu misra atirgulning go‘zalligini va unga bo‘lgan hissiyotlarni ifodalaydi. *“Atirgul, ey go‘zalim, / Shirin nazaring menga.”* (Abdurauf Fitrat. “Atirgul” she‘ridan parcha). Bu misrada esa shoir atirgulni go‘zallikning ramzi sifatida tasvirlaydi, uning nazaridagi jozibadorlikni his qilindi. *“.....Atirgul, erur g‘azal, sevgi va zarafshan.”* (“Xamsa” asaridan parcha). Alisher Navoiy qalamiga mansub ushbu misra sevgi va go‘zallikni atirgul bilan bog‘laydi. *“.....Atirgul go‘zallik xushbo‘y, / Siz uchun yo‘llandi, ko‘nglida to‘lgan.”* (“Lison ut-tayr” asaridan parcha). Navoiy bu misra orqali atirgulning tabiatdagi chiroyini va sevgining go‘zalligini ifodalaydi. *“Atirgulni tanlash uchun, tikanini ham qabul qilish kerak.”* Bu maqol hayotdagi go‘zallikni va qiyinchiliklarni birgalikda qabul qilish zarurligini bildiradi. *“Atirgul chiroyli, lekin tikanli.”* Bu ibora hayotning murakkabligi va go‘zalligini ifodalaydi. *“.....Atirgul kabi, bahorning jasorati, / Har bir tikan, sevgi bizdan bo‘lar payt.”* (Atirgul she‘ridan parcha) Gulnora Qorayeva tomonidan bitilgan bu misra atirguldagi go‘zallikni va undan ehtiyot bo‘lish zarurligini aks ettiradi.

Umar Xayyomning “Ruboiyat” asarida atirgul ramzi o‘zining o‘ziga xosligi bilan tasvirlangan: *“..... Atirgul ochganida, do‘stlik va azob, / Tikanlari bilan, go‘zallikka nazar.”* Bu misra hayotdagi go‘zallik va og‘riq o‘rtasidagi murakkab munosabatni ifodalaydi.

Fitonim, ya’ni o‘simlik nomlariga oid idiomalar ko‘pincha metaforik ma’noga ega bo‘lgan iboralardir. Ushbu idiomalar, odatda, o‘simliklar bilan bog‘liq bo‘lgan xususiyatlar yoki ramziy ma’nolar asosida shakllanadi. Lingvistik jihatdan fitonimlarni o‘rganish borasida bir qancha olimlarning e’tiborga sazovor tadqiqotlari va ishlarini keltirish mumkin.

№	Kategoriya	Flora idioma	Ma’nosi
1	<b>Gular</b>	Gul kabi	Juda go‘zal va chiroyli
		Gular ochilib	Baxtli daqiqalar boshlanish davri
		Gulini ochmoq	Yangi imkoniyat
		Guli qurigan	Umidsizlik, baxtsizlik
		Bir quchoq guldek	Do‘mboqqina

<sup>15</sup>Кауфман К.И, Кауфман М.Ю.. «Счастливы́й английски́й» учебник для 8 класса. Обнинск: Издательство «Титул», 2013.

Dissertatsiyaning “**Ingliz va o‘zbek tillarida frazeologik birliklarning semantik-pragmatik va kognitiv tahlili**” deb nomlanuvchi uchinchi bobi uch paragrafdan iborat. Bobning “*O‘zbek tili fitonim komponentli idiomalarning konseptual-semantik va pragmatik jihatlari*” deb nomlanuvchi 3.1.-paragrafida o‘zbek tilidagi aynan flora, ya’ni o‘simliklarga oid frazeologik birliklarning shakllanishi, etimologiyasi, uslubiy jihatlari, o‘ziga xos birliklari, boshqa tilda mavjud bo‘lgan iboralar bilan qiyoslanishi singari masalalar ustida atroflicha ishlar olib borilgan holda uning semantik va pragmatik xususiyatlarini ochib berishga atroflicha kirishilgan. Har qanday tilning frazeologik tizimi ma’lum bir til jamoasining leksik-semantik xususiyatlarinigina emas, balki uning kognitiv, madaniy va pragmatik o‘ziga xosligini ham aks ettiradi. O‘zbek tilidagi frazeologik birliklarning salmoqli tarkibiy qismlaridan biri fitonimlar – ikkilamchi, ramziy ma’no tashuvchisi vazifasini bajaradigan o‘simlik nomlaridir. Ular orqali ona tilida so‘zlashuvchilarning aqliy tasavvurlari, etnik-madaniy tushunchalari va qadriyat munosabatlari so‘z bilan ifodalanadi. Fitonimlarning kognitiv-pragmatik imkoniyatlarini o‘rganish dunyoning frazeologik rasmini shakllantirish mexanizmlarini, assotsiativ bog‘lanishlar tipologiyasini va kommunikativ amaliyotda tushunchalarning ishlashini chuqurroq tushunishga imkon beradi.

Kognitiv jihat frazeologik birliklar tarkibida o‘simlik elementlarini konseptiyalash usullarini tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Fitonimlar idiomalarga birlashganda o‘zining bevosita denotativ ma’nosini yo‘qotib, metaforik yuklamaga ega bo‘ladi va ma’lum psixik sxemalarning belgisiga aylanadi. Masalan, *gulsafsar, bodom, terak* kabi fitonimlar jamoa ongida mustahkamlangan ma’lum xarakter xususiyatlarini, ijtimoiy rollarni yoki hissiy holatlarni anglatadi. Bu ma’nolar madaniy muhit, mintaqaning tabiiy voqeliklari va tarixan shakllangan barqaror uyushmalar ta’sirida shakllanadi.

O‘zbek madaniy paradigmasining o‘ziga xosligini hisobga olgan holda shuni aytish mumkinki, fitonimlar nafaqat belgilash, balki xulq-atvor ssenariylarini baholash, talqin qilish, modellashtirish, ijtimoiy axloq me’yorlarini mustahkamlashga qodir bo‘lgan muhim ramz vazifasini bajaradi. Ularning nutq amaliyotida barqaror ishlashi bunday idiomalarning yuqori darajadagi rituallashuvi va tipologik barqarorligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, shakl barqarorligiga qaramay, ularning pragmatik ma’nosi ijtimoiy-madaniykontekstga, muloqot qiluvchilarning pozitsiyasiga va aytilish maqsadiga qarab o‘zgarishi mumkin. Yirik namoyondalardan biri A.Mamatov tadqiqotlari nutq madaniyati va frazeologik norma muammolariga bag‘ishlandi. Professor Abdug‘afur Mamatov esa o‘z asarlarida frazeologizmlarning shakllanishi bilan bog‘liq nazariy asoslarini ilgari surdi.<sup>16</sup> Shu o‘rinda, Y.Odilovning frazeologik enontioseмага, M.Vafoyevaning frazeosinonimlarga, Sh.Almamato vaning frazemik komponentlar tahliliga bag‘ishlangan ishlari o‘zbek frazeologiyasining yanada yuksalishiga poydevor bo‘ldi.<sup>17</sup>O‘zbek tilidagi flora idiomalarning ko‘pchiligi qadimiy turkiy

<sup>16</sup>Маматов А.Э. Проблемы лексико-фразеологической нормы в современном узбекском литературном языке: Автореф. дисс... доктора филол. наук. - Ташкент, 1991.

<sup>17</sup>Алмаматова Ш.Т. Узбек тили фраземаларининг компонент тахлили: Филол.фанл.номз.... дисс.автореф. - Тошкент, 2008; Вафоева М.И. Узбек тилида фразеологик синонимлар ва уларнинг структурал-семантик

tillardan kelib chiqadi. Tarixiy jarayonlar, madaniy almashuvlar va til o'zgarishlari natijasida bu iboralar shakllangan. O'zbek tilida o'simliklar bilan bog'liq bo'lgan ko'plab iboralar turli dialektlar va mintaqalar orasida farq qiladi. O'simliklar o'zbek xalqining an'anaviy hayot tarzida muhim rol o'ynaydi. Ular oziq-ovqat, dori-darmon, qo'shiqlar va folklor asarlarini yaratishda, shuningdek, turli marosimlar va bayramlarda ishtirok etishadi. Boshqa mamlakatlarda shakllangan madaniyatlar bilan solishtirganda, o'zbek tilida flora idiomalari bog'lanishlar, hurmat va qadrlashni ko'rsatadi. O'zbek tiliga xos o'simliklarga oid iboralar tarkibini asosan "olma", "qoqi", "qovun", "g'uncha", "tayoq", "tarvuz", "qovoq", "daraxt", "ildiz" va boshqa ko'plab komponentlar tashkil etadi. Quyida tanlangan flora idiomalarining o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjimasining qisqacha lug'ati keltirilgan:

№	O'zbek tilida	Ma'nosi	Tarjimasi
1.	Olma bilan o'rik bo'larmidi	Yoshi o'tgan, qari	An old person
2.	Jinnini jinni desang arpa bo'yi o'sadi	Yomoni yomonlasang shuncha yomonlashadi	The worse you speak about a person the worse she/he can be
3.	Ko'z bilan olma termoq	Anqaymoq, tikilib qarash	To stare
4.	Tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq	Umidi puchga chiqmoq, hafsalasi pir bo'lmoq	To be disappointed
5.	Oq oltin	Paxta	White gold, cotton

O'zbek tilidagi flora idiomalari ko'p hollarda o'simliklarning o'ziga xos xususiyatlari, ramziy ma'nolari bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, "tug'yonli gul" iborasi turli xil ma'nolarni anglatuvchi metafora sifatida ishlatilishi mumkin. Bunday iboralar, xalq ongida o'simliklarning qadrini va ularning hayotdagi rolini aks ettiradi.

Olma nomi bilan bog'liq iboralar o'zbek tilida ko'plab ma'nolarni aks ettiradi. Olma o'zining shirin va ta'mi bilan tanilgan bo'lib, bunday iboralarda ko'plab madaniy, hissiy va amaliy jihatlari kontekstlarda mavjud. Quyida olma bilan bog'liq ba'zi iboralar va ularga oid semantik hamda pragmatik tahlillar keltirilgan: "Olma bilan o'rik bo'larmidi" iborasi o'zbek tilida qiziqarli semantik va pragmatik jihatlarni o'z ichiga olgan idiomadir. Ushbu ibora ikki turli o'simlikni "olma va o'rikni" birlashtirgan holda, muayyan ma'no va kontekstda ishlatiladi. Bu iborani lingvistik jihatdan semantik tahlil qilsak, "olma" va "o'rik" so'zlari individual ravishda turli xil mevalarni anglatuvchi so'zlardir. Ular bir-biriga nisbatan ochiq ko'rinishda farqlanadi, ularning o'ziga xos xususiyatlari va ta'mlari bor. Bu ibora ko'proq metaforik ma'noda ishlatiladi. Uning konnotatsiyasi, ehtimol, qandaydir ikki narsaning, insonlar yoki holatlarning bir-biriga mos kelishi yoki kelmasligini, o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi. Odatda, bu ibora ikki xil fikr, til, o'zaro munosabat yoki hodisani solishtirishda yoki ularni bir-biriga bog'lashda ishlatiladi. U ko'pincha hazil mutoyiba ma'nosida qo'llaniladi. Shunday qilib bu ibora o'zbek tilida nafaqat kulgili yoki yengil taassurot qoldirish, balki og'zaki nutqda muhim rol o'ynaydigan san'atchilik jihatlarni o'z ichiga oladi. U tillararo bog'lanish va insonlar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish

uchun ham qiziqarli bir misol hisoblanadi. “*Ko‘z bilan olma termoq*”: Bu ibora o‘zbek tilida keng tarqalgan metaforik iboralardan biridir. Ushbu ibora aslida ko‘z bilan olingan olma yoki meva emas, balki ko‘proq figurativ ma’noda ishlatiladi. Bu ibora, asosan, biror joyda yoki vaziyatda bir narsani ko‘rasiz (o‘zingizga ma‘qul yoki yoqimli narsani) va uni tasavvur qilishingizni, lekin uni olish imkoniyatingiz yo‘qligini anglatadi. Iborada ko‘z (yoki ko‘rish) va olma (yoki o‘ziga xos biror narsa) o‘rtasida ma’nolar bog‘lanadi.

Bundan tashqari, yana bir idiomalar sifatida “*Alifni tayoq deyolmaslik*” iborasi semantik ma‘no yuzasidan tahlil qilinganda, “savodsiz” deya talqin qilinadi. So‘zlar tahliliga ko‘ra esa: “Tayoq” yassi yoki uzun, ko‘pincha ko‘mak yoki zarba berish uchun ishlatiladigan predmet. “Alif” o‘zbek alifbosidagi birinchi harf. Bu so‘z, shuningdek, “boshlanish” yoki “birinchi narsa” ma’nosini ham anglatadi. Ushbu ibora ko‘pincha muloqotda ishlatiladi, masalan, biror narsani tezda qila olmaydigan odam(lar) bilan bog‘liq holatlarda. Misol uchun, “.....*Yo‘q-e, qanaqa qilib o‘qirdim. Alifni kaltak deyolmayman-ku. Sadag‘ang bo‘lay komandir. Men-ku bu masalada alifni tayoq deyolmayman, ammo injenerlarga ishonaman.....*” (Oybek. Oltin vodiyan shabadalar). Bu kishining savodsizligi va hech narsani tushunmasligini bildiradi.

Ushbu bobning “*Ingliz flora idiomalarining pragmatik va linvomadaniy aspektlar doirasida tavsifi*” deb nomlanuvchi 3.2. – paragrafida ingliz tilidagi flora frazeologik birliklarining semantik va pragmatik xususiyatlarini tavsiflashga doir ma‘lumotlar misollar bilan berilgan. Har bir tilda bo‘lgani kabi ingliz tilida ham milliy va madaniy qadriyatlarni aks ettiruvchi iboralar mavjud. Ingliz tilidagi idiomalarning tarixi qiziqarli va murakkabdir. Xususan, idiomalar ko‘plab ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy kontekstlarda paydo bo‘lgan. Ularning ba’zilari urush, tuzuk yoki boshqalar bilan bog‘liq hodisalar tufayli, ba’zilari esa tabiat yoki hayotiy vaziyatlardan kelib chiqadi. Masalan, “kick the bucket” (vafot etish), “spill the beans” (sirni ochmoq) kabi idiomalar, vaqt o‘zgarishi bilan yangi ma’nolarni o‘z ichiga olgan va bugungi kunda kundalik hayotda foydalanilmoqda.

V.A.Kolesov ham “*Flora and Vegetation in English Proverbs*”<sup>18</sup> nomli kitobni o‘z izlanishlari davomida ommaga taqdim qildi. U o‘z tadqiqotida ingliz xalq maqollarida o‘simliklarning qanchalik keng tarqalganligini ko‘rsatdi. Manbaalarda keltirilishicha, V.A.Kolesov o‘simliklarning maqollar va idiomalar orqali inson hayotidagi roli haqida muhim ma‘lumotlarga ega shaxs edi. Paremiyalar,<sup>19</sup> ya’ni iboralar ko‘plab turlarga tasniflanishi mumkin. Ingliz tilida ham o‘zbek tilida ham paremiya va maqollarni tasniflashning bir necha asosiy yo‘nalishlari mavjud: *mazmuniga, tuzilishiga, vaqtga, uslubga* va boshqa ko‘plab unsurlarga ko‘ra.

Misol uchun: Plant (o‘simlik): *To plant a garden is to believe in tomorrow:*

Bu maqolni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilsak, “*Bog‘ ekish ertaga ishonishdir*” degan ma‘noni anglatadi. Bu maqolga “*To‘qsonga borsang ham, tok ek, yuzga yetguncha, uzumini yeysan*”, “*Bir yil tut ekan kishi, qirq yil gavhar terar*” kabi

<sup>18</sup> Kolesov V.A.. *Flora and Vegetation in English Proverbs*. – Russian academy of sciences, 1993.

<sup>19</sup> Xudoyberganov T. O‘zbek xalq maqollari va idiomalari. – Fan va texnologiya, 2012. – 103p.

o‘zbek maqollari teng kela oladi. Ingliz tilidagi bu maqol o‘zbek tili bilan qiyoslanganda anolog sifatida keladi. Semantik jihatdan “plant” va “garden” so‘zlarini tahlil qilsak, “o‘simlik” va “bog‘” deb tarjima qilinadi. O‘simlikga tabiatda uchrovchi o‘t o‘lan, bog‘ga esa aynan shu kabi o‘t o‘lanlarni o‘z bag‘riga oluvchi makon sifatida qaraladi. Bu yerda “bog‘” nafaqat o‘simliklarni o‘stirish jarayonini ifodalaydi, balki biror narsani rivojlantirish va o‘stirishga bo‘lgan intilish hamdir. “Ertaga” so‘zi kelajakga ishora qiladi, bu esa umid, orzu va kutilayotgan natijani anglatuvchi omil. “Ishonish” esa, fidokorona mehnatga va kelajakda yaxshi natija olish mumkinligiga ishonchni ifodalaydi. Pragmatika nuqtai nazaridan, ushbu maqol inson faoliyatining maqsadi va qadriyatlariga taalluqlidir. Bog‘ ekish, bir tomondan, moddiy manfaatlar, ikkinchi tomondan esa ruhiy qoniqish keltiruvchi amal sifatida qaraladi. Bu maqol, shuningdek, insonlarga bog‘ ekish jarayonida sabr-toqat va mehnat qilishning ahamiyatini o‘rgatadi, natijada insonlar o‘z harakatlarini kelajakda qanday natijalar keltirishi mumkinligini yanada o‘zlashtiradilar. Bundan tashqari, jamoatchilik orasida ham umid uyg‘otish maqsadida qo‘llanilishi mumkin – ya‘ni, har qanday mehnatimiz kelajakda natija berishi, bizni o‘z maqsadlarimizga yaqinlashtirishi mumkin, degan fikrni ifodalaydi.

Fitonim komponent bilan ko‘plab maqollar mavjud bo‘lib quyida shu maqollarni tarjimasini bilan birga keltirib o‘tamiz: *“Little strokes fell great oaks” - Tomchi toshni teshadi, “There is a snake in the grass” - Yomon ilon tegirmon boshida aylanar, “After meat mustard” - Hayitdan keyin xinani ketingga qo‘y, “He that will eat the kernel must crack the nut” - To‘r to‘qilmay baliq tutilmas, “A hard nut to crack” - Og‘ir karvon og‘ir ko‘char.*

Ingliz tiliga tiliga xos o‘simliklarga oid iboralar tarkibini asosan “daraxt”, “ildiz”, “meva”, “sabzavot”, “gular” kabilar tashkil qiladi. *O‘simlikning bandlari nomlariga oid idiomalar: A woody plant bearing sharp impeding processes (as prickles or spines); A sharp rigid process on a plant; specifically: a short, indurated, sharp-pointed, and leafless modified branch.*<sup>20</sup> Ingliz tilida “qiyinchilik, noqulaylik, ko‘ngilsizlikni” ifodalovchi iboralar “thorn” fitonimi, ya‘ni “tikan” so‘zi orqali beriladi: *bed of thorns* – noqulay, qiyin vaziyat; *to thorn in one’s flesh* – gulga tikanak, bosh og‘riq; *to be a thorn in somebody’s flesh/side; a thorn in something’s side* – oshga tushgan xira pashsha; *to thorn in someone’s side* – dard ustiga chipqon.<sup>21</sup> Ingliz madaniyatida “kuchli azob beruvchi” so‘zlarni ifoda etishda “thorn”, ya‘ni tikan so‘zidan foydalanilgan. “Tikanlar toji” nomli o‘simlik bu azoblarni aks ettiruvchi ramz sanaladi. Manbaalarda keltirilishicha, qadimda bunday tojlar o‘limga hukm qilingan jinoyatchilarning boshlariga kiydirilgan, va bu shahidlik timsoli, va shikoyatsiz azob chekish ma‘nolarida kelgan. Shu o‘rinda g‘oliblar esa dafnadan yasalgan gulchambarlardan toj kiygan. Rassomlar esa o‘zlarining rasmlari uchun tikanli toj bilan Masihning tasviridan ko‘p marta foydalanganlar. “Thorn” fitonimining semasi sifatida “yoqimsizlik”, “qiyinchilik”, “gazak olish” ma‘nolarini anglatadi.

<sup>20</sup> Hornby A.S. Oxford advanced learner’s dictionary. – Oxford university press, 2010. – 436p.

<sup>21</sup>Richard A.Spears. McGraw-Hill dictionary of American idioms and phrasal verbs. – McGraw-Hill, 1998. – pp. 94-95.

Mazkur bobning “Oskar Uayldning “Dorian Grey portreti” romanining asl matni va tarjimasi asosida flora komponentli idiomalarning chog‘ishtirma kognitiv-diskursiv tahlili” deb nomlanuvchi 3.3 – paragrafini yoritishda O.Uyald tomonidan yozilgan “Dorian Grey portreti” asar asosiy vosita sifatida xizmat qilgan. “Ana shu suvratim qarisa-yu, men mangu yoshligimcha qolaversam! Buning uchun... Buning uchun men olamdagi bor narsani berishga tayyorman. Ha, hech narsamni ayamas edim. Buning uchun hatto jonimni ham beraman!”... Oskar Uayldning “Dorian Grey portreti” asaridan keltirilgan ushbu parcha orqali inson yoshlikni saqlab qolishni xohlagani bilan, yillar o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmasligi haqida bilib olish mumkin. Oskar Uayldning “Dorian Grayning portreti” asarida flora komponentli bir qancha idiomalar va tasvirlar mavjud. Asarda flora, ko‘pincha go‘zallik, yoshlik va hayotning o‘zgarishi bilan bog‘liq ma’nolarda ishlatiladi. Asar davomida tabiat va go‘zallik inson ruhiyati bilan bog‘lanadi. Dorian Grayning ichki kurashlari o‘simliklar va tabiat tasvirlari orqali ko‘rsatilib, tabiatning hayotiy va o‘zgaruvchanligini ta’kidlaydi. Bu asarning o‘zbek tiliga tarjima qilingan nusxasi ham mavjud. O‘zbek tilida dastlabki tarjimasi 1930-yillarda amalga oshirilgan. Tarjima mualliflari esa turli xil shaxslar bo‘lib, biz ular ichidan Ozod Sharofiddinov tomonidan qilingan tajimani ingliz tilida yozilgan nusxasi bilan qiyoslash uchun tanlab oldik. Ozod Sharofiddinov O‘zbekistonda taniqli tarjimonlardan biridir. Uning qilgan tarjima ishlari kitobxonlar orasida juda mashhur bo‘lib, u asarlarning asl ma’no va ruhini o‘zbek tilida yaxshi ifodalaydi.

Mazkur asarda ko‘plab flora komponentli iboralar va so‘z birikmalari bir xil shaklda qo‘llanilgan. Misol uchun, romanning birinchi bobida keltirilgan bir jumlasida birdan uchta komponentli flora iboralar va so‘z birikmalari taqdim etilgan:

Asiyat	Tarjima rus tilida	Tarjimon tarjimasi	Muallif tarjimasi
The studio was filled with <i>the rich odour of roses</i> and when the light summer wind stirred amidst the trees of the garden, there came through the open door <i>the heavy scent of the lilac</i> , or the more delicate <i>perfume of the pink-flowering thorn</i>	<i>Густой аромат роз</i> наполнял мастерскую художника, а когда в саду поднимался летний ветерок, он, влетая в открытую дверь, приносил с собой то <i>пьянящий запах сирени</i> , то нежное благоухание <i>алых цветов боярышника</i>	Rassomning ustaxonasi <i>atirgulning xushbo‘y hidiga</i> to‘lib ketgandi. Bog‘da yengil shabada tursa ochiq eshikdan ustaxonaga kirib kelar, o‘zi bilan birga ba‘zan <i>kishini mast qiluvchi nastarin hidini</i> , ba‘zan esa <i>alvon-alvon gullab yotgan do‘lana bo‘ylarini</i> olib kelardi	Ustaxona atrofini <i>atirgullarning yoqimli hidi</i> qamrab olgan edi. Bog‘dagi daraxtlar orasida yozgi yengil shabada esganida esa, ochiq eshikdan goh <i>nastarinning kishini to‘yintiruvchi ifori</i> , goh esa <i>pushti gullagan sut o‘tining (sutdo‘zanak, silliq tikanak) nafis hidlari</i> ichkariga kirib kelardi.

Yuqoridagi ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, “*perfume of the pink-flowering thorn*” flora idiomasining tarjimasida adekvat tarjimaga erishilmagan. Chunki “*perfume of the pink-flowering thorn*” idiomasi quyidagicha tarjimaga ega:” *pushti gullagan sut o‘tining (sutdo‘zanak, silliq tikanak) nafis hidlari*”. Misollardan anglash mumkinki, ushbu gapda tarjima “singan”. Mazkur xatoni to‘g‘irlash va adekvat tarjimaga erishishda adaptatsiya usulidan foydalanish maqsadga muvofiq

bo'lar edi. Shuningdek, asl matndagi jumlada *uchta flora komponentli ibora* mavjud bo'lib, ularning har biri o'ziga xos semantik mezon bilan ifodalangan:

Aslyat matnida berilgan "...*the rich odour of roses...*" so'z birikmasini tarjimon o'z tarjimasida "...*atirgulning xushbo'y hidiga..*", "...*heavy scent of lilac...*" iborasini "...*kishini mast qiluvchi nastarin hidiga..*", "...*perfume of the pink-flowering thorn...*" iborasini esa "...*alvon-alvon gullab yotgan do'lanaga...*" qiyoslab misol sifatida keltiradi. Bu berilgan birinchi ibora: "...*the rich odour of roses...*", ya'ni atirgulning kuchli iforini tasvirlamoqda. Bu iborani *semantik jihatdan* tahlil qilinsa, "*rich*" - so'zi qalin, to'yimli, boy va kuchli degan ma'noni bildiradi. "*Odour*" so'zi esa hidni anglatadi va ijobiy tarzda berilgan kontekstlarda ishlatiladi. "*Roses*", ya'ni atirgullar go'zallikning timsoli. Barcha so'zlar birgalikda kuchli va yoqimli hidga ega bo'lgan atirgulning badiiy ko'rinishni va hissiy ifodasini taqdim etadi. *Pragmatik jihatdan* qaralganda esa, iboraning ma'nosi kontekstga bog'langan holda chuqur mazmun kasb etadi. Atirgullar ko'plab madaniyatlarda muhim o'rin tutadi. Ular sevimli bo'lish ma'nosida kelib, "the rich odour" so'zlari bilan birga insonda uyg'onuvchi kuchli his-tuyg'ularni ifodalaydi.

Ikkinchi ibora "...*heavy scent of lilac...*", ya'ni kishini mast qiluvchi nastarin hidi kontekstda tasvirlamoqda. Bu ibora ma'no tuzilishiga ko'ra ikkiga bo'lingan holda kelmoqda. Birinchisi, "*heavy scent*" - so'z birikmasi holatida insonga o'ta kuchli darajada ta'sir o'tkaza oladigan hidni anglatib, bu konnotatsiyada hidning kuchi va ta'sirchamligi muhimdir. Ikkinchisi esa "*lilac*" so'zi bo'lib, qizil, moviy yoki binafsha rangli gullarga ega bo'lgan o'simlikdir. Bu so'z, odatda, bahor va yoz mavsumining kelishini, shuningdek, estetik go'zallik va tabiiy muhitni ta'riflaydi. Ushbu iborada hid o'simlik bir-biri bilan bog'liq bo'lib, kuchli hissiyotlarni shakllantiradi. *Pragmatik jihatdan* esa, "...*heavy scent of lilac...*" iborasi bog'dan keluvchi yoqimli gulning iforini va uning kuchli ta'sirini aks ettirgan. Bu holatda, hidning kuchliligi va o'simlikning go'zalligi kontekstdagi hissiy tajribani kuchaytiradi. "Lilac", ya'ni nastarin guli o'ziga xos madaniy ma'noga ega bo'lib, sevgi, yoshlik, tozalik ramzi sifatida ko'riladi.

Uchinchi ibora, "...*perfume of the pink-flowering thorn...*", ya'ni tarjimon tilidan olinganda "...*alvon-alvon gullab yotgan do'lana bo'ylarining ifori...*" sifatida berilgan so'z birikmasi grammatik jihatdan *sifat+ot* bo'lib kelgan. Tuzilishiga ko'ra "*Noun + Preposition + Article + Adjective + Noun*", ya'ni "*Perfume + of + the + Pink-flowering + thorn*" bo'lgan ushbu ibora o'zida turli grammatik elementlarni birlashtirib ma'lum bir ma'noni ifodalaydi.

"*Pink-flowering thorn*" iborasi juda go'zal va tasviriy bir ifodadir. Ushbu iborani tahlil qilganimizda, go'zallik, noziklik va ehtimoliy holatda xavf haqida ham fikr yuritishimiz mumkin. *Semantik* holatiga ko'ra, "*perfume*" so'zi xushbo'y hidni anglatadi. "*Pink-flowering*" iborasi so'zma-so'z tarjima qilinganda pushti rangda gullash ma'nosini ifodalaydi. Lekin badiiy tarzda "guldosh" kabi ma'noni anglatdi. Bu ibora pushti rangdagi gullar bilan tavsiflanadi. Pushti rang ko'pincha yumshoqlik va muloyimlik bilan bog'liq, gullar esa go'zallik, hayot, tabiatni ifodalaydi. Bu so'z birikmasini yakunlovchi "*thorn*" so'zi esa tikan ma'nosida keladi. "Tikan" himoya yoki muhofaza qilishni anglatadi, shuningdek, zarar yoki

og‘riqni ham ko‘rsatishi mumkin. U go‘zallikning o‘zida xavf yoki qiyinchilik mavjudligini bildiradi. Ushbu so‘zlarni umumlashtirgan va asliyatdan qochgan holda tarjimon “*Pushti rangli gulning tikanlaridan taralayotgan hid*” jumlasini “*alvon-alvon gullagan do‘lana bo‘ylarining ifori*” bilan tenglashtirdi. Bu esa o‘z-o‘zidan jumlaning tarjima qilish jarayonida o‘zbek tilidagi analog variantga murojaat qilinganligini ko‘rsatib beradi. So‘z birikmasini *pragmatik* tahlilga tortilganda shuni ko‘rish mumkinki, ibora badiiy asarda yoki she‘riyatda qo‘llanilsa, u murakkab munosabatlar yoki go‘zallik va xatarlar orasidagi aloqalarni ifodalaydi. Bu haqiqiy hayotdagi tajribalarni aks ettirishi mumkin. U hayotning ikki tomonini, go‘zallik va og‘riq o‘rtasidagi munosabatni ko‘rsatadi. Bir so‘z bilan aytganda, bu ibora bizni go‘zal narsalar bilan birga keladigan murakkablikni tan olishga chaqiradi. Hayotimizda go‘zallikni qadrlash bilan birga, uning ehtimoliy xavflarini ham e‘tiborga olishimiz lozimligini eslatadi. Xulosa o‘rnida quyidagi mezonlarni keltiramiz:

<b>Mezon</b>	<b>Tarjimon tarjimasini</b>	<b>Muallif tarjimasini</b>
<b>Semantik</b>	Ba‘zi elementlar (masalan, hid o‘rniga rang) almashtirilgan, noaniqlik mavjud	Asliyatga yaqin, semantik izchillik saqlangan
<b>Pragmatik</b>	Matn vazifasi qisman bajarilgan, lekin estetik ohangda pasayish bor	Kayfiyat va uslub asliyatga mos tarzda uzatilgan
<b>Kognitiv</b>	Obrazlar emotsional jihatdan kuchli, lekin izchil emas	Mental tasvirlar aniq va asliyatdagi hissiyotni aks ettiradi

Xulosa tarzida muallif tarjimasida kognitiv struktura, ya‘ni idrok nuqtasidan rivojlanadigan tasvir aniq saqlanganligi, tarjimon tarjimasida esa idrok markazi chalkash bo‘lib, o‘quvchi asosiy obrazni yo‘qotib qo‘yishi mumkinligi isbotlab berildi.

## **UMUMIY XULOSA**

1. O‘zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklar etimologik, kognitiv va madaniy-tarixiy determinantlar ta‘sirida shakllanadi. Bu birliklar xalq tafakkurining tarixiy qatlamlari, ijtimoiy-madaniy voqealar bilan bog‘liq bo‘lib, til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aks ettiradi. O‘zbek va ingliz tillarida frazeologik tizimlarning o‘rganilishi, idiomalar orqali tilning murakkabligi va boyligini tushunishga yordam beradi. Idiomalar, tillarning frazeologik unsurlari sifatida, bevosita so‘zlar ma‘nolarini o‘zgartirib, yangi, o‘ziga xos ma‘nolarni taqdim etadi. Ularning kelib chiqishi, tarixiy kontekst va madaniy muhit bilan bog‘liq bo‘lib, bu omillar orqali idiomalar aloqa jarayonida hissiy, ijtimoiy va madaniy qadriyatlarini aks ettiradi.

2. Frazeologik birliklarning semantik asosida metaforik, metonimik va ramziy elementlar mavjud bo‘lib, ular kognitiv model sifatida tavsiflanadi. Bu elementlar tilshunoslikda semantik va pragmatik tahlil uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

3. Idiomalar nutqda kognitiv va diskursiv ifodalanish hodisasi sifatida o‘rganilib, ularning funktsionalligi, kontekstda ma‘no hosil qilishi, baholovchanlik, emotsionallik va obrazlilik darajalari tahlil qilinadi. Bu tahlil frazeologik birliklarning til hamda madaniyatdagi o‘rni va ahamiyatini ochib beradi.

4. Shu tariqa, o'zbek va ingliz tillarida frazeologik tizimdagi idiomalar, ularning nazariy asoslari va aloqadagi ahamiyatlari, frazeologik va leksik ma'nolar o'rtasidagi tafovut, iboralarning semantik ma'nosi va grammatik tuzilishi orqali, tilshunoslik, tarjima va madaniyatlararo aloqaa sohalarida ko'plab qiziqarli va foydali tadqiqot imkoniyatlarini taqdim etadi. Bu o'rganishlar, til va madaniyat o'rtasidagi bog'lanishlar, shuningdek, zamonaviy tilshunoslikning rivojiga hissa qo'shadi va kelajakdagi tadqiqotlar uchun asos yaratadi.

5. Frazeologik birliklarning struktur-semantik, morfosintaktik xususiyatlari va nutqdagi dinamik ishlatilish xususiyatlari funksional-kognitiv yondashuv asosida ochib beriladi. Bu yondashuv frazeologik birliklarning til tizimidagi o'rnini va vazifasini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Bundan tashqari, idiomalar frazeologik darajada emas, balki nutqiy aktlar va kommunikativ niyatlar orqali o'ziga xos diskursiv hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Bu holat frazeologik birliklarning kommunikativ va pragmatik xususiyatlarini yanada aniqroq ko'rsatadi.

6. O'zbek va ingliz tillaridagi idiomalar madaniy muhitga, tarixga va tilning o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lib, bu ularni tarjima qilishda qiyinchiliklar yaratadi. Tarjima jarayonida nafaqat so'zlarning bevosita ma'nosi, balki ularning frazeologik, semantik ma'nolari, konteksti va tillarning grammatik tuzilishi ham hisobga olinishi kerak. Tarjima jarayonida so'zlarning bevosita frazeologik, semantik ma'nolari, konteksti va tillarning grammatik tuzilishi hisobga olinishi kerak. Bu esa foydalanuvchilar uchun to'g'ri, madaniy kontekstni saqlovchi, va ifodali tarjimalarni amalga oshirish uchun muhimdir.

7. Frazeologik birliklar faqat tayyor til birliklari emas, balki lisoniy ongda konseptual tizimlar bilan bog'liq holda shakllanuvchi va madaniyat bilan chambarchas bog'liq bo'lgan murakkab semantik-struktur birliklardir. Ularning semantik va funksional barqarorligi til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aks ettiradi. O'zbek tilida o'simlik atamalari va ularning kelib chiqishida tarixiy va madaniy omillar muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston tabiatining qulay sharoitlari va ko'p tarmoqli ekosistemi, floristik jihatdan boy bo'lishi, o'simliklarga doir so'zlarni va ularning idiomatik iboralarni boyitishga imkon yaratdi. O'zbek tilidagi flora idiomalarining semantik xususiyatlari ko'pincha metaforik ma'nolarga ega.

8. O'simlik dunyosiga oid atamalar xalq mentaliteti va lingvokulturologik qadriyatlar aks ettiruvchisi sifatida o'zbek va ingliz tillaridagi flora komponentli frazeologik birliklarda xalqning etnogenetik xotirasi, tabiat bilan bo'lgan tarixiy-madaniy aloqasi va konseptual dunyoqarashini ifodalovchi lingvokulturologik kod sifatida namoyon bo'ladi. Fitonimlar ushbu frazeologik birliklarda milliy madaniyatning ramziy-semantik qatlamlarini uzviy aks ettiradi. Pragmatik jihatdan, o'zbek tilidagi flora idiomalarida ma'lumot berish va ma'naviy jihatdan o'sish maqsadida ishlatiladigan frazeologik birliklar ko'plab zamonaviy kontekstlarda yangi ma'no va ahamiyatga egadir. O'simliklar va ularning turli holatlaridagi keng tarqalgan tasavvurlari ijtimoiy aloqalarda, ma'rifat jarayonlarida va hatto ta'lim jarayonida muhim o'rin tutadi.

9. Ingliz tilida flora idiomalarining semantik xususiyatlari ham aniq o'zgarishlarni ko'rsatadi. Bu tilning tarixi, xalq og'zaki ijodi va madaniyatlararo aloqalari o'simliklar atamaları va frazeologik birliklariga, qolaversa, pragmatik jihatdan o'simlik atamaları ko'pincha ijtimoiy kontekstda, shuningdek, non-verbal kommunikatsiyada ham o'z tasirini ko'rsatadi. O'simliklar va ularning ramziy ma'nolari, shuningdek, an'analarda, rasmiy nutqlarda qiyosiy ahamiyatga ega hisoblanadi.

10. "Dorian Grayning Portreti" asarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, undagi o'simliklarga oid iboralar va atamalar har ma'noda ijtimoiy va psixologik vaziyatlarni aks ettiradi. O'zbekiston madaniyatida bu asar ko'proq estetika va go'zallik tamoyillari orqali qabul qilinadi, boisi Dorian Grayning o'ziga xos go'zallik va o'simliklar bilan bog'langan misollarini o'qishga qiziqishi, shuningdek, hayotiy imkoniyatlarni anglatadi. O'zbekcha tarjimada esa metaforalar ko'proq mahalliy kontekstga bog'liq bo'ladi va o'sha davrning madaniyati va an'alarini aks ettiradi.

11. Bu romanning inglizcha va o'zbekcha matnlari o'rtasidagi qiyosiy tahlillarda orqali ko'rishimiz mumkinki, har ikki tilda o'simliklar orqali aks ettiradigan hissiyot va tasavvurlar turlichadir. Ingliz tilida "a rose by any other name would smell as sweet" iborasi o'simliklar va ularga doir his-tuyg'ularni dunyoda shaxsning mohiyatini tasvirlashda ishlatadi. O'zbek tilida esa o'simliklar zikrida ko'proq hissiy vaziyatlar, an'analarga qaramay xalqning ruhiyati ham aks etadi.

12. Umuman olganda, flora komponentli frazeologik birliklar struktur jihatdan turli morfosintaktik modellarda namoyon bo'ladi. Ular kommunikativ vaziyatda nafaqat semantik, balki baholovchanlik, kinoya, istehzo va ijtimoiy holatni ifodalash singari pragmatik ahamiyat kasb etadi. Ular funksional uslublarda, xususan, badiiy, publitsistik va og'zaki nutq uslubida stilistik vosita sifatida faol qo'llaniladi. O'zbek va ingliz tillaridagi flora idiomalarining semantik va pragmatik tahlili, til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlik, shuningdek, o'simliklarning ramz sifatidagi ahamiyatini to'g'ri tushunishga yordam beradi. Har bir til o'zining o'ziga xos xususiyatlari va madaniy asoslari bilan birgalikda, o'simliklar orqali insoniyatning turli shart-sharoitlari va hissiyotlarini tasvirlaydi. Ushbu tahlil jarayoni, shuningdek, ikki millat o'rtasidagi o'zaro ta'sir va farqlarni tushunishga va madaniyatlararo aloqalarni chuqurlashtirishga yordam beradi. Bu tahlil o'simliklar atamalarining ahamiyatini oshirish, ilmiy tadqiqotlar va madaniyatshunoslikga didaktik kuch sifatida xizmat qiladi.

13. O'zbek va ingliz tillaridagi flora idiomalari chog'ishtirma tahlilining o'ziga xos xususiyatlarini, ijtimoiy va madaniy tafovutlari, kelajakda o'simliklar atamalarining ilmiy tadqiqotlarda qo'llanilishi va madaniyatlararo munosabatlarni chuqurlashtirishga xizmat qiladi. O'simliklar orqali til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni, insoniyat hissiyotlarini va aloqalarini tushunishga yordam beradigan zaruriy bilimlarni taqdim etadi. Ushbu xulosa orqali o'simliklar va atamaları, shuningdek, ularning semantik, pragmatik xususiyatlari turli tillarda, hamda, madaniyatlarda qanday rol o'ynashini global nuqtai nazardan tushunishga yordam beradi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ  
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 ПРИ САМАРКАНДСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ  
УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ ИМЕНИ АЛИШЕРА НАВОИ**

**МУХАММАДИЕВА ШОХСАНАМ МАНСУР КИЗИ**

**СЕМАНТИЧЕСКИЕ И ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ  
ИДИОМ, СОДЕРЖАЩИХ КОМПОНЕНТЫ АНГЛИЙСКОЙ И  
УЗБЕКСКОЙ ФЛОРЫ**

**10.00.06 - Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание и переводоведение**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан рег №B2023.4.PhD/Fil.4184.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском и английском (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета ([www.samdchti.uz](http://www.samdchti.uz)) и Информационно-образовательном портале «Ziyouet» ([www.ziyouet.uz](http://www.ziyouet.uz)).

**Научный руководитель:**

**Холиков Баходир Аликулович**  
доктор философии по филологическим наукам (PhD), доцент

**Официальные оппоненты:**

**Сулаймонова Нилуфар Джабборовна**  
доктор филологических наук (DSc), профессор

**Холмунинов Илхом Абдихалилович**  
доктор философии по филологическим наукам (PhD), доцент

**Ведущая организация:**

**Каршинский государственный университет**

Защита диссертации состоится 24 октября 2025 года в 16<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.Fil/83.01 при Самаркандском государственном институте иностранных языков. (Адрес: 140104, г. Самарканд, улица Гагарина, 43. Тел: (99866) 233-78-43; факс: (99866) 210-00-18; e-mail: [info@samdchti.uz](mailto:info@samdchti.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного института иностранных языков (рег. № 62284, Адрес: 140104, г. Самарканд, улица Гагарина, 43. Тел.: (99866) 238-29-42.

Автореферат диссертации разослан 10 октября 2025 года.  
Протокол реестра рассылки за № 41 от 10 октября 2025 года.



**Н.З. Насруллаева**

Председатель научного совета по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

**У.У. Кулдашов**

Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии по филологическим наукам (PhD), доцент

**Д.А. Киселёв**

Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук, (DSc) профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация к диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мировом языкознании углубленное изучение когнитивной, национально-культурной и языковой картины мира, лингвистического выражения общечеловеческих ценностей в различных языках является одной из актуальных задач современности. В конце XX века в результате усиления внимания к антропоцентризму – научной парадигме, изучающей язык в связи с фактором личности, использующей его, в языкознании возникли ряд проблем, требующих решения. В частности, изучение семантических и прагматических особенностей узбекских и английских флористических идиом, улучшение процессов межкультурной коммуникации в мировом масштабе и выявление лингвистических различий, а также глубокий анализ семантической и прагматической адаптивности между языками и культурами посредством данной темы имеет актуальное значение. Результаты данного исследования не только внесут значительный вклад в развитие теоретического языкознания, но и послужат повышению эффективности межкультурного диалога.

Несмотря на ряд исследований в мировой лингвистике, посвященных семантике языка, вопрос выражения семантических значений на других языках и лингвистические особенности перевода до сих пор недостаточно изучен. Изучение семантических и прагматических особенностей узбекских и английских идиом, связанных с флорой, является одним из важных научных направлений в международной лингвистике и фразеологии. Его изучение способствует пониманию сложности межкультурных коммуникаций и совершенствованию технологий межъязыкового перевода. В частности, идиомы с компонентом флоры также стали объектом научных исследований в мировом масштабе, однако их лингвокогнитивные, лингвокультурные, семантические и прагматические аспекты в английском и узбекском языках еще не были полностью изучены в сравнительном аспекте. Заполнение этого пробела еще больше повышает научную значимость данного исследования.

В ряде исследований, проведенных в узбекском языкознании, научные взгляды на исследование языка с точки зрения когнитивной лингвистики были продемонстрированы посредством концептуального анализа. Изучение роли когнитивных механизмов в языковых единицах, в том числе в идиомах, и их вербализации посредством языковых единиц заключается в дальнейшем совершенствовании таких научных взглядов. Изучение идиом на примере английского и узбекского языков показывает чрезвычайную актуальность данной проблемы для когнитивной лингвистики в сравнительном аспекте. В данной диссертации также уделено внимание позитивным направлениям в современной когнитивной лингвистике, этнолингвистике и антропологической лингвистике, связанных с языком, культурой и мышлением. Это связано с тем, что фразеологические единицы в языке напрямую связаны с уникальными традициями, психологическими особенностями, образом жизни

